

## Surxondaryo viloyatida bajarilgan qurilish ishlari


2026-yil yanvar-mart oylari uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

### I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2026-yilning yanvar-mart oylarida, Surxondaryo viloyatida jami 3 207,5 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 110,0% ni tashkil etdi.

#### Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %
Surxondaryo viloyati *	3 207,5	110,0
Termiz sh.	927,1	105,4
Oltinsoy tumani	62,0	134,9
Angor tumani	79,1	105,4
Bandixon tumani	25,5	111,5
Boysun tumani	116,2	113,0
Muzrabot tumani	80,3	114,1
Denov tumani	206,9	106,4
Jarqo'rg'on tumani	147,9	108,4
Qumqo'rg'on tumani	93,0	107,9
Qiziriq tumani	86,5	115,9
Sariosiyo tumani	184,2	107,7
Termiz tumani	170,3	104,3
Uzun tumani	48,7	152,2
Sherobod tumani	93,6	109,5
Sho'rchi tumani	44,6	105,9

\*) Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmni qo'shgan holda

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

## II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari


2026-yilning yanvar-mart oylarida Surxondaryo viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 77,0 % ulushni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 110,4 % ni tashkil etdi;

- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 21,2 % ulushni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 109,4 % ni tashkil etdi;

- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 1,8 % ulushni va 2025-yilning mos davriga nisbatan 102,5 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar turlari kesimida qurilish ishlari

	Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd so'm	109,8	203,4	1,6
<i>o'sish sur'ati, %</i>	236,1	131,4	84,6
Kichik korxonalar va mikrofirmalar hajmi, mlrd so'm	1 263,3	475,3	58,4
<i>o'sish sur'ati, %</i>	102,5	102,1	103,0
Norasmiy sektor hajmi, mlrd so'm	1 095,7	-	-
<i>o'sish sur'ati, %</i>	114,4	-	-

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)


[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

### III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2026-yilning yanvar-mart oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 314,8 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2025-yilning mos davriga nisbatan 155,0 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 2,8 % ga ko'payib, 9,8 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 56,0 % i to'g'ri kelib, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2025-yilning mos davriga nisbatan 102,4 % ni tashkil etgan holda 1 797,0 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 34,2 % ni yoki 1 095,7 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 114,4 % ni tashkil etdi.

#### Korxonalar turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari



Hududlar kesimida korxonalar turlari  
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
Surxondaryo viloyati *	314,8	1 797,0	1 095,7	155,0	102,4	114,4
Termiz sh.	60,3	860,9	5,9	240,0	101,1	185,0
Oltinsoy tumani	19,4	27,4	15,2	301,3	99,0	128,0
Angor tumani	9,7	39,7	29,7	99,0	105,4	107,6
Bandixon tumani	0,9	17,1	7,5	118,7	100,8	145,6
Boysun tumani	0,9	89,0	26,3	120,2	108,9	129,1
Muzrabot tumani	19,3	16,5	44,5	143,7	96,5	111,7
Denov tumani	4,2	130,7	72,0	157,8	105,3	106,4
Jarqo'rg'on tumani	29,6	72,2	46,1	129,8	101,7	108,2
Qumqo'rg'on tumani	5,2	45,1	42,7	166,4	100,3	112,1
Qiziriq tumani	11,8	61,5	13,2	1 645,5	99,6	108,9
Sariosiyo tumani	57,4	74,6	52,2	101,3	103,2	124,0
Termiz tumani	5,5	114,4	50,4	152,2	100,0	111,1
Uzun tumani	4,8	18,4	25,5	348,5	88,3	261,6
Sherobod tumani	5,3	37,1	51,2	106,2	112,5	107,7
Sho'rchi tumani	2,0	30,6	12,0	118,6	99,9	122,6

\*) Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmni qo'shgan holda

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Qiziriq tumanida (2025-yilning mos davriga nisbatan 16.4 m), Oltinsoy tumani (3.0 m) va Uzun tumani (3.5 m) qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Sherobod tumanida (2025-yilning mos davriga nisbatan 112,5%), Denov tumanida (105,3%) va Termiz shahriga (101,1%) kuzatildi.

#### IV. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

**Qurilish ishlari** – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;



d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;

e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;

f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1875/Qurilish-ishlari.pdf>

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1877/Aholi-jon-boshiga-qurilishishlari.pdf>

---

**Tayyorlash uchun mas'ul:**

Surxondaryo viloyati investitsiya va  
qurilish statistikasi bo'limi

**Ijrochi:**

SH. Gaipov  
55 451-80-00 (7520)

**Manzil:**

